

 MKBANK	QR-kod uchun joy	Mikroqarzning to'liq qiymati miqdori: _____ (_____) foiz <i>so'z bilan</i>
---	-----------------------------	---

“Biznesga birinchi qadam” mikroqarzi ajratish to'g'risidagi _____-sonli

MIKROQARZ SHARTNOMASI

_____ viloyati _____ yil

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki, bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiluvchi nomidan _____._____._____ yildagi _____-sonli ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi Bankning _____ rahbari _____ bir tomondan va keyingi o'rinlarda “Qarz oluvchi” deb yuritiluvchi fuqaro _____ (pasport ma'lumotlari: _____, _____ yilda _____ tomonidan berilgan) ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda “Tomonlar” deb yuritiluvchilar ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu shartnoma matni bo'yicha keyingi o'rinlarda uchraydigan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha ma'no anglashilmasa, ushbu bo'limda bayon qilingan ma'nolarni anglatadi:

- **mikroqarz** – mikroqarz olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan va 65 yoshdan oshmagan, doimiy rasmiy daromadga ega bo'lmagan, o'zini o'zi band qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga bank tomonidan qonunchilik va bank ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda to'lovlik, muddatlik, ta'minlanganlik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'i.

- **qarz oluvchi** – mikroqarz olgan hamda mikroqarz shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini olgan, mikroqarz olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan va 65 yoshdan oshmagan, doimiy rasmiy daromadga ega bo'lmagan, o'zini o'zi band qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

- **mikroqarz foizi** – mikroqarzdin foydalanganlik uchun qo'shimcha to'lov;

- **mikroqarz bo'yicha qarzidorlik** – Qarz oluvchi nomiga ochilgan tegishli hisobvaraqlarda hisobi yuritilayotgan mikroqarzning hammasi yoxud qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan mikroqarzning qoldig'i, mikroqarzdin foydalanilganlik uchun hisoblangan foizlar;

- **mikroqarzni o'zlashtirish muddati** – ushbu shartnomada belgilangan, Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz resurslarini o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan davr;

- **mikroqarz berilgan sana** – Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan mijozga mikroqarz ajratish yuzasidan tegishli buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshirilgan sana;

- **mikroqarzni qaytarish sanasi** – ushbu shartnomadan kelib chiqib, mikroqarz bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarning va asosiy qarz qoldig'ini qoplaydigan, Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishiga olib keladigan oxirgi to'lov sanasi;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

- **to'lov majburiyatlari** – Qarz oluvchining mikroqarz bo'yicha qarzlarni, uning bo'yicha foizlarni ushbu shartnomada ko'rsatilgan summada va muddatlarda to'lash bo'yicha hamda boshqa to'lovlar majburiyatlari;

- **mikroqarz bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzdorlik** – mikroqarz yoxud uning bir qismi, mikroqarzdin foydalanganlik uchun hisoblab yozilgan foizlar hamda Qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda to'lanmagan boshqa to'lov majburiyatlari bo'yicha qarz summasi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda mikroqarz mablag'ini ajratish, Qarz oluvchi esa olingan mikroqarzdin foydalanganlik uchun qarz va unga hisoblangan foiz to'lovlarini mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda va shartlarda to'lagan holda qaytarish majburiyatini oladi.

III. Mikroqarzni ajratish shartlari

- 3.1. Mikroqarzni umumiy summasi _____ (_____) so'mni tashkil etadi.
- 3.2. Mikroqarz ajratish uchun Qarz oluvchiga Bankda alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi.
- 3.3. Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga asosan ssuda hisobvarag'idan mikroqarz mablag'lari ajratish: _____ orqali amalga oshiriladi. Bunda, mikroqarz summasi _____ (_____) so'm miqdorida sug'urta to'lovini o'z ichiga oladi.
- 3.4. Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi), ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kalendar kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim (mikroqarzni o'zlashtirish muddati).
- 3.5. Mikroqarz muddati: imtiyozli davrsiz _____ (_____) oy.
- 3.6. Mikroqarzdin foydalanganlik uchun foiz to'lovi: yillik _____ (_____) ni tashkil etadi. Mikroqarzdin foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi: o'zgarmas.
- 3.7. Mikroqarz bo'yicha foizlar Bank tomonidan har kuni ushbu shartnomaning 3.6-bandida belgilangan foiz stavkasida va mikroqarz berilgan sanadan boshlab Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idagi mikroqarz summasi qoldig'iga nisbatan hisoblab boriladi.

IV. Qarz oluvchining tasdiqnomasi

- 4.1. Qarz oluvchi quyidagilarni ma'lum qiladi va tasdiqlaydi:
- Bankka taqdim etilgan (etiladigan) mikroqarzni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanadi;
 - Qarz oluvchiga nisbatan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligini;
 - Agar qarz oluvchi to'lovlarni amalga oshirishga yoki ushbu shartnomada belgilangan talablardan istalganini bajarishga qodir bo'lmasa, Bankning mikroqarzni muddatidan oldin qaytarishni va mikroqarzga hisoblab yozilgan foizlar va boshqa to'lovlarning muddatidan oldin to'lanishini talab qilishga, undiruvni Bank bilan kelishilgan shartlarda mikroqarz ta'minotiga qaratishga, muddatida to'lanmagan mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni Qarz oluvchining banklarda ochilgan barcha turdagi hisobvaraqlaridagi, shu jumladan, uning depozit va bank kartasi

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarishga haqli ekanligini tan olishini va bunga e'tiroz bildirmasligini;

- Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlari Bankning avtoso'ndiruv xizmatiga ulanishiga rozi ekanligini va ushbu xizmat orqali Bank tomonidan mikroqarzning to'lov muddati kelgan qismi va unga hisoblagan foizlarni qoplash uchun yetarli bo'lgan mablag'lar Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlaridan qo'shimcha ogohlantirishlarsiz avtomatik tarzda hisobdan chiqarilishi tushuntirilganligini;

- Qarz oluvchining ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchining ushbu shartnomaga, Fuqarolik kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik keltirib chiqarishi haqida ogohlantirilganligini;

- Qarz oluvchi o'zi haqidagi va unga Bank tomonidan ajratilayotgan mikroqarz to'g'risidagi ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axborotining davlat reyestrini yuritish departamentiga" (KADR), "Kredit axborotlari tahlil markazi" (KATM) Kredit byurosi MChJga hamda garovga taqdim etilgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Garov reyestri" DUKga taqdim etilishiga roziligini.

V. Mikroqarzni to'lash tartibi

5.1. Qarz oluvchi ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lovlar jadvaliga muvofiq har oylik (davriy) to'lovlarni bosqichma-bosqich o'z sanasi va summasi doirasida, Qarz oluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochilgan hisobvaraqa to'lab boradi. Mikroqarzning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli: differensial yoki annuitet (kerakli to'lovning tagiga chiziladi).

5.2. Qarz oluvchi tomonidan to'langan to'lovlar quyidagi tartibda mikroqarzni qoplashga yo'naltiriladi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;

- 3) kreditorning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari;

5.3. Qarz oluvchining so'roviga asosan Qarz oluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochilgan hisobvaraqa to'langan mablag'lar ushbu shartnomaga muvofiq mikroqarzning muddati kelmagan asosiy qarzini qisman muddatidan oldin qaytarishga yo'naltirilishi mumkin.

Mikroqarz qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan mikroqarz bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki mikroqarzning oraliq asosiy qarzi to'lovlarining miqdorlari o'zgarmaydi. Foiz to'lovlari asosiy qarzning qoldig'iga nisbatan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq hisoblanadi.

5.4. Bank ushbu shartnomaning 5.1-bandiga muvofiq to'lov muddati kelgan, lekin to'lanmagan mikroqarzni, mikroqarzga hisoblangan foiz va oshirilgan foiz to'lovlarni Bankning avtoso'ndiruv xizmati orqali Qarz oluvchining bank karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib oladi.

5.5. Mazkur shartnoma tuzilganidan so'ng mikroqarz bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari o'zgarsa, shartnoma shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilsa, ushbu

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

shartnomaga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish yo'li bilan to'lovlar jadvaliga o'zgartirish kiritiladi.

5.6. Qarz oluvchi ushbu shartnoma va u bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, ro'yxatga olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Bankning birinchi talabiga ko'ra to'lab beradi.

5.7. Mijozning so'roviga (topshirig'iga) asosan, mijozdan mikroqarzning joriy to'lovi uchun mikroqarzni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini mijoz mikroqarzining asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirishi mumkin.

VI. Mikroqarz ta'minoti bo'yicha talablar

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan mikroqarz quyidagilar bilan ta'minlanadi:

6.1.1. Bank va _____ sug'urta kompaniyasi o'rtasida 20__-yil "____"-_____ da tuzilgan _____-sonli mikroqarz qaytmasligini sug'urtalash yuzasidan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta polisi;

6.1.2. Bank, Qarz oluvchi va _____ o'rtasida 20__-yil "____"-_____ da _____ (_____) so'm miqdorga tuzilgan _____-sonli kafillik shartnomasi bilan;

6.1.3. _____

_____.

(qo'shimcha ta'minot taqdim qilinganda to'ldiriladi)

6.2. Bank Qarz oluvchidan mikroqarz qaytarilishining qo'shimcha ta'minotini talab qilish huquqiga ega.

6.3. Qarz oluvchi mikroqarzni ta'minlashni mikroqarz summasining kamida 125 foizi darajasida tutish majburiyatini oladi.

6.4. Mikroqarzning ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar (bitim, shartnomalar) ushbu shartnoma bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi va mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan olingan majburiyatlar bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

6.5. Mikroqarzning qaytaruvchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

VII. Tomonlarning huquqlari

7.1. Bankning huquqlari:

7.1.1. Qarz oluvchining moliyaviy holatini, ta'minotning holatini nazorat qilib turish.

7.1.2. Qarz oluvchidan majburiyatlarni bajarishda nazoratni amalga oshirish uchun kerakli hujjatlarni so'rab olish.

7.1.3. Qarz oluvchi ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab mikroqarzni bir oy muddatda o'zlashtirmagan taqdirda, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda Qarz oluvchini yozma ravishda xabardor qilgan holda bekor qilish;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

7.1.4. Bank tomonidan oʻrnatilgan tartibga muvofiq qoʻshimcha xarajatlar talab qilinadigan, Qarz oluvchining qoʻshimcha topshiriqlarini, u tomonidan qoʻshimcha xarajatlar toʻlanmagunga qadar bajarmaslik;

7.1.5. Ajratilgan mikroqarzning muddati kelgan qismini, mikroqarzga hisoblangan foiz va oshirilgan foiz toʻlovlarni Bankning avtosoʻndiruv xizmati orqali Qarz oluvchining (kafilning) bank karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib olish. Bunday bank operatsiyasi Qarz oluvchini oldindan ogohlantirishsiz, toʻlov muddati kelgan sanada va undan keyingi har qanday sanada avtomatik amalga oshiriladi hamda amalga oshirilgan bu turdagi bank operatsiyasi haqida Qarz oluvchi (kafil) ga alohida yozma xabarnoma yuborilmaydi.

7.1.6. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

7.2. Bank oʻz xohishiga koʻra ushbu shartnoma boʻyicha oʻzida Qarz oluvchiga nisbatan mavjud boʻlgan huquqlardan istalganini qoʻllashi yoxud qoʻllamasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarni qoʻllamaslik yoxud qisman qoʻllash ushbu huquqlardan voz kechilishini bildirmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qoʻllanilishi mumkin.

7.3. Qarz oluvchining huquqlari:

7.3.1. Ushbu shartnomaning 3.5-bandida koʻrsatilgan davr mobaynida va ushbu shartnomada koʻrsatilgan summa doirasida ssuda hisobvaragʻidan toʻlovni amalga oshirish boʻyicha ariza berish.

7.3.2. Bankni mikroqarz berilishidan oldin 5 kun ichida xabardor qilib, mikroqarzni olishdan bepul tarzda toʻliq yoki qisman voz kechish;

7.3.3. Mazkur shartnoma shartlariga amal qilgan holda qarzdorlikni muddatidan oldin soʻndirish.

7.3.4. Ushbu shartnoma boʻyicha oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarni toʻliq bajargan holda mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

VIII. Tomonlarning majburiyatlari

8.1. Bankning majburiyatlari:

8.1.1. Qarz oluvchi tomonidan barcha zarur shartlar bajarilgach, mikroqarz mablagʻini Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga asosan ajratish.

8.1.2. Qarz oluvchini mikroqarz uchun toʻlovlarning oshirilishi yoki kamaytirilishi sabablari, mikroqarzni berishni rad etish, mikroqarzni muddatidan oldin undirish va undiruvni mikroqarz taʼminotiga qaratish sabablari toʻgʻrisida yozma ravishda xabardor qilish.

8.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

8.2.1. Olingan mikroqarzni va hisoblangan foizlarni ushbu shartnoma shartlariga hamda toʻlov jadvaliga muvofiq muddatida toʻlab borish;

8.2.2. Kreditlashning taʼminlanganlik, muddatlilik, qaytariluvchanlik va toʻlanuvchanlik tamoyillariga qatʼiy amal qilish.

8.2.3. Bank soʻroviga binoan Bank vakillariga mikroqarz taʼminotiga, mikroqarzga taalluqli boʻlgan boshqa mol-mulklarni koʻzdan kechirish va ushbu Shartnoma boʻyicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarilishiga taalluqli boʻlgan har qanday turdagi boshqa mol-mulklarni borib koʻrish imkoniyatlarini yaratib berish va ushbu jarayonlarga toʻsqinlik qilmaslik.

8.2.4. Bank talabiga binoan ushbu Shartnoma amal qiladigan butun davr mobaynida, Bankni qoniqtiradigan shakl va mazmun boʻyicha Qarz oluvchi, kafilning daromadlari toʻgʻrisidagi

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

axborotni va ushbu mikroqarzga tegishli bo'lgan boshqa ma'lumot va hujjatlarni Bankka taqdim etish.

8.2.5. Pochta va elektron manzili, telefon raqami, familiyasi yoki ismidagi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan boshqa holatlardagi o'zgarishlar to'g'risida Bankni bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan oldin 5 (besh) bank ish kuni mobaynida xabardor qilish.

8.2.6. Ushbu shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligrisiz ushbu Shartnomaga yoki uning shartlariga zid bo'lgan boshqa turdagi bitimlarni, shu jumladan, Qarz oluvchining nomida bo'lgan barcha turdagi mol-mulklarni begonalashtirish va uchinchi shaxslar tasarrufiga o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirmasligi va uchinchi shaxslarning kreditlarini va/ yoki qarzlarini jalb qilmasligi kerak.

8.2.7. Uchinchi shaxslar oldidagi boshqa majburiyatlaridan oldin, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni birinchi navbatda bajarish.

IX. Majburiyatlarning bajarilmaslik holatlari

9.1. Ushbu bandda qayd etilgan hodisalar Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi holatlari hisoblanadi:

- Qarz oluvchining mikroqarz, unga hisoblangan foizlar va/ yoki boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini ushbu Shartnoma, uning bo'yicha to'lovlar jadvali, shuningdek, ushbu Shartnomada belgilangan boshqa shartnomalar bo'yicha belgilangan sanada amalga oshirmasligi;
- Bankni ataylab haqqoniy bo'lmagan hujjatlar taqdim etgan holda chalg'itish;
- Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz ta'minoti bo'yicha Bankka berilgan istalgan ta'minot turining qisman yoki to'liq o'z qiymatini yo'qotganligi;
- Kafilning to'lov qobiliyatining yomonlashganligi yoki ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarilmasligiga olib keladigan aniq ma'lumotlarning yashirilganligi;
- ushbu Shartnoma shartlari va unda nazarda tutilgan majburiyatlarning lozim darajada bajarilmaganligi;
- ushbu Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar shartlarining (kafillik va h.k.) buzilishi.

9.2. Qarz oluvchi tomonidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelgan taqdirda, Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi harakatlardan birini amalga oshirishi mumkin:

- Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganligi va uni bartaraf etish uchun muddatni belgilagan holda yozma bildirishnoma (e'tiroz xati) yuborish;
- Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganda uning banklardagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank kartasi va h.k.) Qarz oluvchining roziligini olmagan holda (akseptsiz tarzda) mikroqarz bo'yicha mavjud qarzдорlikni qoplashga yetadigan pul mablag'larini yechib olish;
- ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini qo'shimcha ravishda ta'minlanishini talab qilish;
- ushbu shartnomaning 9.1-bandida ko'rsatilgan holatlar yuz berganda, Qarz oluvchidan mikroqarzni hammasini yoki uning bir qismini belgilangan tartibda muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

- mikroqarz bo'yicha barcha qarzdorliklarni mikroqarz ta'minoti yuzasidan tuzilgan shartnomalarda (kafillik va h.k.) belgilangan tartibda undiruvni ta'minotga qaratgan holda undirish.

X. Tomonlarning javobgarligi

10.1. Tomonlarning ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

10.2. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan mikroqarzga), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foizning 1,5 baravari miqdorida foiz (oshirilgan foiz) to'laydi. Bunda, mazkur Shartnoma bo'yicha yillik qarz summasining yarmidan ko'p miqdorida oshirilgan foizlar hisoblashga yo'l qo'yilmaydi.

10.3. Mazkur shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi natijasida oshirilgan foiz to'lovlarning undirilishi (to'lanishi) Tomonlarni o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XI. Fors-major holatlari

11.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko'ra olishmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etishi mumkin bo'lmagan favquloddagi hodisalar natijasida vujudga kelgan, yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlari hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi, xususan: yong'in, tabiiy ofat va ushbu shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi, tomonlarga taalluqli bo'lmagan boshqa hodisalar kiradi.

11.2. Shartnomaning 11.1-bandida ko'rsatilgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga tushgan tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda 2 kun ichida xabardor qilishi va tugaganligi to'g'risida ham ikkinchi tomonni ma'lum qilishi shart.

11.3. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlari sodir bo'lgan taqdirda, shartnomaning amal qilish muddati shunday holatlar va uning oqibatlari butun davriga teng muddatga uzaytiriladi.

XII. Nizolarni hal qilish tartibi

12.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va/ yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan, shuningdek, mazkur Shartnomaning 8 va 9-bo'limlarida nazarda tutilgan majburiyatlar va majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda barcha kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

12.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Bankning ushbu shartnoma asosida mikroqarz ajratgan hududiy bo'linmasi joylashgan hududdagi sudga murojaat qilish orqali hal etiladi (Shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

12.3. Bank mikroqarz mablag'larining muddatida qaytarilmaganligi hamda ushbu shartnomaning 9-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganligi natijasida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi usullaridan foydalanishi mumkin:

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

- Qarz oluvchi (kafil)ni mikroqarz to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida og'zaki va yozma ravishda ogohlantirish;

- Qarz oluvchining bankdagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank kartava h.k.) tegishli mablag'larni uning roziligini olmagan holda (akseptsiz tarzda) yechib olish.

12.4. Bankning ushbu Shartnomaning 12.3-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasligi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

12.5. Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz mablag'larini qaytarish muddatlariga rioya qilinmagan taqdirda hamda ushbu shartnomaning 9-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yuzaga kelganida Bank o'z ixtiyoriga ko'ra mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval undirish to'g'risida:

a) ijro xati yozishni so'rab notariusga;

b) hal qiluv qarori chiqarishni so'rab fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin.

XIII. Shaxsga doir ma'lumotlar

13.1. Qarz oluvchi ushbu shartnomani imzolash orqali Bankka Qarz oluvchining shaxsiga oid ma'lumotlarga ishlov berishga o'z roziligini beradi.

13.2. Bank Qarz oluvchining shaxsiga oid ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi va ishlov berishi mumkin:

- ushbu shartnoma bo'yicha Bankning huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini ijro qilishda;

- Qarz oluvchi huquq va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlashda;

- Qarz oluvchi to'g'risidagi kredit axborotini olishda;

- Bankka mikroqarz resurslarini taqdim qiluvchi tomonidan talab qilgan ma'lumotlarni taqdim qilishda (mikroqarz jalb qilingan resurslar hisobidan amalga oshirilgan taqdirda);

- mikroqarz ta'minotiga oid bitimlarni rasmiylashtirish uchun notarius, sug'urta kompaniyalari va ichki ishlar idoralariga murojaat qilishda;

- muayyan bank xizmatining samaradorligini baholash uchun marketing izlanishlarini o'tkazish, tahliliy yoki statistik ma'lumotlarni tayyorlash va umumlashtirishda;

- Bank boshqaruv organlari, nazorat organlari, auditor yoki potensial investorlar uchun Bankning faoliyati va moliyaviy holatiga oid hisobotlarni tayyorlashda;

- Qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarni verifikasiya qilish, shu jumladan, firibgarlik holatlariga yo'l qo'yilmasligi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida;

- davlat idoralari hamda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga muddati o'tgan mikroqarz qarzdorliklarini undirish uchun murojaat qilishda;

- yangi bank xizmatlarini taklif etish maqsadida;

- yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun shaxsga oid ma'lumotlar aks etgan hujjatlarni ma'lumot almashinish uchun aloqa (pochta) xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarga taqdim qilish, elektron axborot almashinish dasturlari bazalariga joylashtirishda.

XIV. Korrupsiyaga qarshi shartlar

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

14.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

14.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

14.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "Mikrokreditbank" ATBning ishonch telefonlari orqali amalga oshiriladi.

14.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

14.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XV. Boshqa shartlar

15.1. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchining uchinchi shaxslar bilan tuzgan har qanday turdagi shartnomalari (bitimlari)dan yuridik jihatdan mustaqil bo'lib, Qarz oluvchi uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnomalari (bitimlari) qoidalariga asoslanib Bankka e'tiroz bildirmaydi.

15.2. Har bir tomon ushbu Shartnoma predmeti va shartlariga bog'liq ma'lumotlarning maxfiyligini saqlaydilar. Ushbu ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tegishli organlarga berilishi bundan mustasno.

15.3. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

15.4. Mazkur Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

15.5. Ushbu Shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilgan va imzolagan qo'shimcha kelishuvlar tarzida rasmiylashtiriladi. Mazkur

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)

Shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlari bir-biriga zid bo'lgan taqdirda, qo'shimcha kelishuv shartlari amal qiladi.

15.6. Bank ushbu shartnoma doirasidagi har qanday xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 16-bo'limida ko'rsatilgan pochta manziliga buyurtma xat ko'rinishida, telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida yoki elektron manziliga elektron xabar ko'rinishida yuborishi mumkin. Xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani ushbu badda ko'rsatilgan usullarning faqat bittasidan foydalangan holda yuborilishi Qarz oluvchiga ushbu xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnoma lozim darajada yetkazilgan deb hisoblanishi uchun kifoya.

15.7. Mazkur Shartnoma o'zbek tilida tomonlardan har biri uchun, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuzilgan.

XVI. Tomonlarning manzillari, rekvizitlari va imzolari

Bank: "Mikrokreditbank" ATB _____ _____ hududiy boshqarmasi /BXO/BXM Manzil: _____ h/v: _____ STIR: _____ _____ rahbari: _____ _____ <i>F.I.Sh.</i> Bosh buxgalter: _____ _____ <i>F.I.Sh.</i>	Telefon (faks): _____ MFO: _____ _____ <i>imzo</i> _____ <i>imzo</i>
---	---

Qarz oluvchi: _____ Pasport ma'lumotlari: _____, _____. ____ yilda _____ tomonidan berilgan. Yashash manzili: _____ Telefon: _____ Bank kartasi raqami: _____ / _____
--

Ushbu shartnomani o'qib chiqdim, ushbu shartnomaning so'zlari, bo'limlari va bandlarining ma'nosi, mazmuni va ahamiyati menga tushunarli, shu munosabat bilan ushbu shartnomani imzolayman va uning shartlarini va unda o'zimga yuklatilgan majburiyatlarni so'zsiz ijro etish uchun qabul qilaman.

(Qarz oluvchining F.I.Sh. to'liq, o'z qo'li bilan yoziladi)

(imzo)

Qarz oluvchi _____
 (imzo)

Bank _____
 (imzo)

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(izmo)